

ARAB MEDIA DISKURSIDA «ADOLAT» (عدالة) KONSEPTI: QIYOSIY DISKURS-TAHLIL (AL JAZEERA VA AL ARABIYA SARLAVHALARI MISOLIDA)

Xursanaliyeva Irodaxon

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti

3-bosqich talabasi

irodaxondilshodjonovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab media diskursida “adolat” (عدالة) tushunchasining ifodalanishi Al Jazeera va Al Arabiya telekanallari sarlavhalari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda diskurs tahlili usullari hamda Teun van Dijkning mafkuraviy kvadrat nazariyasidan foydalanildi. Tahlil jarayonida leksik vositalar, fe'llar va sintaktik tuzilmalar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har bir media manba voqeani o'z siyosiy va mafkuraviy pozitsiyasidan kelib chiqib talqin qiladi. Bu esa “adolat” tushunchasining turlicha diskursiv shakllanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: diskurs, media, adolat, sarlavha, mafkura, til, tahlil

Abstract. This article analyzes the representation of the concept of “justice” (عدالة) in Arab media discourse based on a comparative study of headlines from Al Jazeera and Al Arabiya. The study applies discourse analysis methods and the ideological square framework proposed by Teun van Dijk. Lexical choices, verb usage, and syntactic structures are examined in the analysis. The findings reveal that each media outlet interprets events according to its own political and ideological stance. As a result, the concept of “justice” is constructed differently within each discourse.

Keywords: discourse, media, justice, headlines, ideology, language, analysis

Аннотация. В данной статье анализируется отражение концепта «справедливость» (عدالة) в арабском медиадискурсе на основе сравнительного анализа заголовков телеканалов Al Jazeera и Al Arabiya. В исследовании применяются методы дискурса-анализа, а также модель «идеологического квадрата», предложенная Teun van Dijk. В ходе анализа рассматриваются лексические средства, глаголы и синтаксические конструкции. Результаты показывают, что каждое медиа интерпретирует события в соответствии со своей политической и идеологической позицией. Это приводит к различной дискурсивной интерпретации понятия «справедливость».

Ключевые слова: дискурс, медиа, справедливость, заголовки, идеология, язык, анализ

Kirish. Bugungi zamonaviy asrda ommaviy axborot vositalari jamiyat fikrini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, siyosiy voqealarni yoritishda so'z tanlovi va ifoda usuli katta ta'sirga ega. Shu sababli media matnlarni faqat mazmun jihatidan emas, balki ularning diskurs xususiyatlari asosida ham tahlil qilish lozim. Diskurs — bu til birliklarining muayyan ijtimoiy vaziyatda qo'llanishidir. U faqat matn bilan cheklanmay, balki kontekst, maqsad va ishtirokchilarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada arab media diskursida “adolat” (عدالة) tushunchasining ifodalanishi tahlil qilinadi. Arab media makonida “adolat” tushunchasi alohida o'ringa ega. Mazkur kategoriya diniy, axloqiy va siyosiy kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Islomiy tafakkurda adolat — ilohiy tartib va haqqoniylik ifodasi bo'lsa, zamonaviy siyosiy

diskursda esa u ko'pincha ma'lum guruh manfaatlari bilan bog'liq holda qayta talqin etiladi. Natijada "adolat" universal tushuncha emas, balki diskursiv konstruktsiya sifatida shakllanadi. Mazkur tadqiqotda media diskursni tahlil qilish uchun Teun van Dijk tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-lingvistik yondashuvdan foydalaniladi. Xususan, uning "mafkuraviy kvadrat" nazariyasi muhim metodologik vosita hisoblanadi (van Dijk, 1998):

- "Biz" guruhining ijobiy jihatlarini ta'kidlash;
- "Ular" guruhining salbiy jihatlarini bo'rttirish;
- "Biz"ning kamchiliklarini yashirish;
- "Ular"ning ijobiy tomonlarini e'tibordan chetda qoldirish.

Tadqiqot sifat tahlil (qualitative analysis) asosida olib borildi

Asosiy qism. Tadqiqot materiali sifatida 2023-yil oktabr oyida G'azo mojarosi davrida e'lon qilingan yangiliklar sarlavhalari tanlab olindi.

Jumladan, Al Jazeera va Al Arabiya telekanallarining bir xil voqeani yoritishdagi yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. Masalan, quyidagi sarlavhalarda kuzatish mumkin:

"...إسرائيلي قصف في فلسطيني استشهاد" (Al Jazeera)

"...غارة في فلسطيني مقتل" (Al Arabiya).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki kanal bir voqeani turlicha lingvistik vositalar orqali ifodalaydi. Masalan, qurbonlar haqida gap ketganda Al Jazeera ko'pincha "استشهاد" terminidan foydalanadi. Bu so'z diniy va emotsional konnotatsiyaga ega. Aksincha, Al Arabiya "مقتل" yoki "وفاة" kabi neytral birliklarni qo'llaydi.

Fe'llarning qo'llanilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi hollarda majhul nisbat orqali sub'ekt yashiriladi, boshqa hollarda esa faol nisbat orqali aybdor ochiq ko'rsatiladi. Sintaktik jihatdan ham farqlar mavjud:

Al Jazeera — hissiy va urg'uli

Al Arabiya — rasmiy va neytral Media sarlavhalari voqeani aks ettirmaydi, balki uni diskursiv ravishda konstruktsiya qiladi.

Natijada "adolat" tushunchasi har bir diskursda turlicha mazmun kasb etadi.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko'ra, arab media diskursida "adolat" tushunchasi yagona va obyektiv emas. Aksincha, u har bir media manbaning siyosiy va mafkuraviy pozitsiyasiga bog'liq holda shakllanadi (Kharbach, 2020). Diskurs tahlili shuni ko'rsatadiki, til kuchli ideologik instrument hisoblanadi (van Dijk, 1998). Shunday qilib, "adolat" tushunchasi obyektiv haqiqat emas, balki diskursiv ravishda shakllantiriladigan kategoriya hisoblanadi. Mazkur tadqiqot arab tilini o'rganuvchilar uchun ham muhim bo'lib, u matnning yashirin ma'nolarini anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Al Arabiya. (n.d.). Retrieved from <https://www.alarabiya.net> □
2. Al Jazeera. (n.d.). Retrieved from <https://www.aljazeera.com> □
3. Alukah. (n.d.). Arab tilida "adolat" tushunchasi haqidagi maqolalar. Retrieved from <https://www.alukah.net> □
4. Fairclough, N. (1995). Media discourse Edward Arnold.
5. Kharbach, M. (2020). Understanding the ideological construction of the Gulf crisis in Arab media discourse.
6. Van Dijk, T. A. (1998). Ideology: A multidisciplinary approach. Sage Publications.
7. Van Dijk, T. A. (2006). Discourse and manipulation. Discourse & Society, 17(3), 359–383. <https://doi.org/10.1177/0957926506060250> □